
Farg'ona shahar hokimligi tomonidan sayyor qabul o'tkazildi

Bugun Sharqiy harbiy okrugning ma'naviyat va ma'rifat binosida Farg'ona shahar 4 ta sektor (shahar hokimi, shahar prokurori, shahar IIO FMB va shahar Davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i) rahbarlari, shuningdek, Ma'muriy va Fuqarolik ishlari bo'yicha shahar sudlari sud'yalari hamda Majburiy ijro byurosi shahar bo'limi boshlig'ining fuqarolar uchun navbatdagi sayyor qabuli o'tkaziladi.

Qabulda shahar hokimining o'rinbosarlari va Xalq qabulxonasi mudiri G'ayratjon Pattaev, shuningdek mahallalarda faoliyat olib borayotgan xodimlar ham ishtirok etdi.

Sayyor qabulda yuz nafardan ortiq fuqarolardan tushgan murojaatlar mas'ul rahbarlar ishtirokida o'rganildi. O'ttizga yaqin murojaatlar ijobiy hal qilindi.

Murojaatlarni joyida o'rganib chiqish va natijasi bo'yicha fuqaroga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilot va bo'limlarga tegishli topshiriqlar berildi.

2022-08-17 15:21:31